

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BILIR BAYRAM

**O'RXUN YOZUVINI TRANSKRIPSIYALASHTIRISHDAGI
FARQLILIKLAR VA ULARNING YUZAGA KELISH SABABLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Bilir Bayram

О'rxun yozuvini transkripsiyalashtirishdagi farqliliklar va ularning yuzaga kelish
sabablari..... 3

Билир Байрам

Различия в транскрипции орхонского письма и их причины..... 19

Bilir Bayram

Differences in the transcription of the Orkhon script and their causes..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BILIR BAYRAM

**O'RXUN YOZUVINI TRANSKRIPSIYALASHTIRISHDAGI
FARQLILIKLAR VA ULARNING YUZAGA KELISH SABABLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/Fil2815 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eltazarov Jo'liboy Danabayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich
filologiya fanlari doktori, professor

Sodiqov Qosimjon Pozilovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «10» mart soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» fevral kuni tarqatildi.
(2023-yil «27» fevral dagi 109-raqamli reestr bayonnomasi).



M.Q. Muhiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B. Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

D.B. Urinbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida “Turk runiy yozuvi”, “O‘rxun-Yenisey yozuvi” kabi nomlar bilan ma’lum bo‘lgan O‘rxun yozuvlari topilgandan boshlab yodnomalar matnini o‘qish va izohlash bo‘yicha 40 dan ortiq yirik lingvistik tadqiqotlar olib borilgan. Garchi bu tadqiqotlar sohadagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qilgan bo‘lsa ham mazkur yozuvlarni o‘qish va talqin qilishdagi ayrim kamchiliklar hali to‘la bartaraf etilmagan. O‘rxun yozuvlarini o‘qish va talqin qilishdagi tafovutlar borasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar qadimgi turkiy harflarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi masalasi haligacha ilmiy-tadqiqiy muammo sifatida hal etilmaganligini ko‘rsatadi. Binobarin bugunga qadar O‘rxun yozuvlari bo‘yicha amalga oshirilgan barcha tadqiqotlarda ushbu yozuvlarning transkripsiyasida umumiylik yo‘q, ya’ni turkshunos olimlarning izlanishlari transkripsiya jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun dunyo tillari transkripsiyasidagi umumiylik me’yorlarining mavjudligidan kelib chiqib, O‘rxun yozuvlarining umume’tirof etilgan umumiy xalqaro transkripsiyasini ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida keng qo‘llaniladigan transkripsiya (transcription) atamasi bir qancha ilmiy manbalarda til, tovush va talaffuzlarining, hatto ba‘zan urg‘ularning turli xil maxsus belgilar yordamida yozilishi yoki ko‘rsatilishi sifatida tushuntiriladi. Shu asosda qadimgi turkiy yozuv va tillarining boshqa alifbo va yozuv tizimlari bilan ifodalangan shakllarini har tomonlama o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Shuningdek, yozma yodgorliklarning asl matnlari davriy va geografik til xususiyatlaridan kelib chiqib, Xalqaro Fonetik Assotsiatsiyasining (IPA) eng so‘nggi natijalariga asosan (2015-yil) tahrir qilinib, to‘g‘rilangan XFA (Xalqaro Fonetika Alifbosi) alifbosidagi harflar va ularning bir qancha tovushlarning talaffuzda ifodalanuvchi alohida belgilari (inglizcha: diacritic) bilan transkripsiyasini amalga oshirish, shubhasiz, umumturk tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida ishning zaruratini yuzaga chiqaradi.

O‘zbekistonda O‘rxun yozuvlari barcha turkiy til va lahjalar uchun bobo til ekanligi e’tirof etilgan. Turkiy til va lahjalarning barcha xususiyatlari qadimgi tilda o‘zining lisoniy asoslarini topadi hamda shu asosda bu tillar tarixi tadqiq qilinadi. Zero, «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»¹. Darhaqiqat, yodgorliklarga bevosita aloqador bo‘lgan o‘zbek tilining ko‘plab xususiyatlari qadimiy turkiy til tabiatiga tayanib tushuntirilishi mumkin. Shuning uchun ham qadimiy turkiy bitiklar tarixiy hamda zamonaviy turkiy tillarni ilmiy tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Qolaversa, mazkur matnlar qadimiy turkiy til va yozuvning bizga ma’lum ilk namunasi bo‘lib, keyingi davrlardagi uyg‘ur yozuvining yaratilishiga asos bo‘ldi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarbligini ko‘rsatadi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2019, 22 oktabr, № 218 (7448).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rxun-Yenisey yozuvlari bo‘yicha dunyoda va O‘zbekistonda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, V.V.Radlov², V.Tomsen³, H.Vamberi⁴, R.M.Melioranskiy⁵, S.E.Malov⁶, H.N.Orhun⁷, A. fon Gabain⁸, T.Tekin⁹, M.Ergin¹⁰, G.Aydarov¹¹, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov¹², A.Shukurlu¹³, E.Rejebov, J.Memmedov¹⁴, S.Sidikov, K.Konkobayev¹⁵, S.Amonjolov¹⁶, N.Abdurahmonov, J.Eltazarov¹⁷, N.Rahmonov¹⁸, Q.Sodiqov¹⁹, N.Bazilxon²⁰, Sh.Geng²¹, A.Berta²², S.Karjaubay²³, A.B.Erjilasun²⁴, E.Aydin²⁵, M.O‘lmez²⁶ kabi olimlar tarafidan fundamental asarlar

² Radloff W. Die Altürkischen Inschriften Der Mongolei. – Sankt-Peterburg, 1895. – P. 460.

³ Thomsen V. Inscriptions de l’Orkhon Dechiffrees. – Helsingfors, 1896. – P. 224.

⁴ Vambery H. Noten Zu Den Alttürkischen Inschriften Der Mongolei and Sibiriens. – Helsingfors, 1898. – P. 119.

⁵ Мелиоранский П.М. Памятник в честь Кул тегина. -Санкт-Петербург: «Типография императорской Академии Наук», 1899. – 144 с.

⁶ Малов С.Э. Памятники древнетюркской письменности. – Москва-Ленинград: «Академик Наук», 1951.–92 с.

⁷ O‘rquon H.N. Eski Türk Yazıtları. – Ankara, 1936. – S. 962.

⁸ Gabain A. Altürkischce Grammatik. – Hamburg, 1950. – P. 357.

⁹ Tekin T. A Grammar Of Orkhon Turcic. – Bloomington: Indiana University, 1968. – P. 419.

¹⁰ Ergin M. Orhun Abideleri. – İstanbul, Boğaziçi Yayınları, 1970. – S. 147.

¹¹ Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. – Алма-ата: Наука, 1971. – 371 с.

¹² Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. – 166 с.

¹³ Şükürlü Ə., Qədim Türk Yazılı Abidələrinin Dili. – Bakı: Maarif Nəşriyatı, 1993. – S. 335.

¹⁴ Режобов Э., Меммедов Ж. Орхон Енисей Абиделери. – Баку: Язычы, 1993. – 399 с.

¹⁵ Сыдыков С., Конкобаев К. Байыркы Турк Жазуусу (VIII-X Ұылымдар). – Бишкек: КТМУ, 2001. – 337 с.

¹⁶ Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. – Алма-ататы: “Мектеп”, 2003. – 366 с.

¹⁷ Абдурахмонов Н., Элтазаров Ж. Қадимги туркий тил. Дарслик, – Тошкент, 2002. – 168 б.

¹⁸ Раҳмонов Н. Ўрхун-Энасой Ёдномалари. –Тошкент, 1987.

¹⁹ Содиков Қ. Кўк турк битиклари: Матн ва унинг тарихий талқини. – Тошкент: “ТошДШИ” нашриёти, 2004. – 144 с.

²⁰ Базылхан Н. Казакстан тарихи туралы турки деректемелери II: Конне турик битиктастары мен эскерткиштери (Орхон, Енисей, Талас). – Алматы, 2005. – 250 с.

²¹ Geng, Shimin. 古代突厥文碑铭研究 – Gūdài tūjué wén bēimíng yánjiū. – Beijing: Zhongyāng Mǐnzu Dàxué Chubānshe, 2005. P. 334.

²² Berta A., Szavaimat Jól Halljátok. A Türk és Ujgur Rovásírásos Emlékek Kritikai Kiadása. – Szeged, 2004. P. 323.

²³ Каржаубай С. Орхон Муралары: I Китап. – Алматы: Абзал-Ай Баспасы, 2012. – 392 с.

²⁴ Erçilasun A.B. Türk Kağanlığı ve Türk Bengü Taşları. – İstanbul, Dergâh Yayınları, 2016. – S. 757.

²⁵ Aydın E. Orhon Yazıtları (Köl Tegin, Bilge Kağan, Tonyukuk, Ongi, Küli Çor). – İstanbul, Bilge Kültür Sanat, 2017. – S. 239.

yaratilgan. Bu tadqiqotlar qadimgi turkiy bitiklarni o‘qish, sharhlash va ulardagi ayrim harf, tovush va so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab berishda erishilgan jiddiy yutuqlardir haqida turli-tuman fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “O‘zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘rxun bitiklari deb nomlangan Kul tegin, Bilga xoqon va To‘nyuquq bitiklarida turkologlar tomonidan qilingan transkripsiyalarni solishtirish, transkripsiya farqlarini aniqlash va ularni XFAsiga ko‘ra qayta talqin qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi izlanishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

turkologlar tomonidan O‘rxun yozuvlaridagi unllarning (↓, ↑, >, №) transkripsiya qilinishini o‘rganish va ular qanday transkripsiya qilinishi kerakligi masalasini ochib berish;

O‘rxun yozuvlaridagi qalin va ingichka unli tovushlar bilan qo‘llaniluvchi undoshlar qanday transkripsiya qilinganini tahlil etish va hozirgi turkiy tillarda bir harf bilan ifodalanuvchi ǰ-ǧ, ǧ-X, ʕ-ʕ, ɾ-ʕ, ↓-ʕ, ǰ-ʕ, ʕ-ʕ, ʕ-ʕ, ʕ-ʕ, ʕ-ʕ undosh harflarining turlicha transkripsiya etilganligini va buning sabablarini ochib berish;

O‘rxun yozuvlarida uchraydigan neytral undoshlar qanday transkripsiya qilingani va ularni qanday o‘qish va izohlash kerakligi masalasini ko‘rib chiqish;

O‘rxun yozuvlarida uchraydigan unli+undosh yoki undosh+unli tarzida ikkita tovushni ifodalaydigan harflar (↓, ʕ-ʕ, ↓, ʕ) turkologlar tomonidan alohida-alohida harf shaklidami yoki tovush birikmasi (V+K / K+V) ifodalovchi alohida maxsus bitta belgi bilan transkripsiya qilinganmi, degan masalaga yechim topish;

O‘rxun yozuvlaridagi qo‘sh undoshlar (ligatur) (M, ʕ, ⊕) birliklar turkologlar tomonidan alohida-alohida harf shaklidami yoki tovush birikmasi ifodalovchi alohida maxsus harf sifatida transkripsiya qilinganmi, degan masalaga oydinlik kiritish;

O‘rxun matnlarida harf shaklida yozilmagan, lekin o‘qishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan unli tovushlar transkripsiyasi masalasi qanday hal etilganligi masalasini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyektini O‘rxun yozma yodgorliklarini tashkil qiluvchi uch bitiktosh Kul tegin, Bilga xoqon, To‘nyuquq qabrtoshlari matnlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini qadimiy turkiy yozma yodgorliklar bo‘yicha amalga oshirilgan transkripsiyalarni o‘zaro qiyoslash, farqli jihatlarini tahlil etish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ishda asosan tavsifiy, diaxron, tarixiy-qiyosiy, kompralingvistik, transkripsion tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

²⁶ Ölmez M. Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan’daki Eski Türk Yazıtları Metin-Çeviri-Sözlük. – Ankara, Bilgesu Yayınları, 2012. – S. 375.

O‘rxun yozuvlaridagi unilarning (ǰ, Ǳ, >, Ǻ) turkologlar tomonidan lotin va kirill yozuvida amalga oshirilgan transkripsiyalaridagi “ä”, “ı”, “ö”, “y” kabi harflarning qo‘llanilishi namunasida ularning farqlari ochib berilgan;

obidalar matnlaridagi qalin va ingichka unli tovushlar bilan qo‘llanuvchi undoshlar va neytral undoshlarning hozirgi turkiy tillarda bir yoki bir necha belgilar bilan transkripsiya qilinishi dalillangan;

turkologlar tomonidan O‘rxun yozuvlaridagi ligatur (Ǻ, ǰ, Ǻ) birliklar alohida harf (“nt”) yoki tovush birligini ifodalovchi maxsus bitta belgi (“ǺǺ”, “ǺǺ”) bilan transkripsiya qilinishi isbotlangan;

O‘rxun yozuvlarida ifoda etilmagan, lekin o‘qish uchun qo‘llaniladigan
ᲞᲚᲗᲛᲗ...ᲚᲚᲗᲛᲗ “b^ašl^ıg^ıg...tizl^ıg^ıg”, “b^ašl^ıg^ıg...tizl^ıg^ıg”,
“b(a)šl(ı)g(ı)g...tizl(i)g(i)g” kabi unli harflarning transkripsiyasi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda bayon etilgan O‘rxun yozuvini transkripsiyalashtirishning turli variantlariga doir xulosalari dunyo turkologiyasi uchun muhim ilmiy-nazariy manba hamda O‘rxun yozuvlari uchun umumiy bo‘lgan transkripsiya ekanligi ochib berilgan;

ushbu yozuvlar transkripsiyasida eng murakkab bo‘lgan va shu vaqtgacha turli tafovutlar bilan ifodalanib kelgan transkripsion belgilar dunyoda tan olingan standart hisoblanuvchi Xalqaro Fonetika Alifbosi asosida yangi transkripsiya varianti taklif etilgan;

mazkur tadqiqot runologiya, dialektologiya, leksikologiya kabi sohalar bo‘yicha yaratiladigan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, ilmiy-uslubiy ko‘rsatmalarni takomillashtirishda yordam beradi, shuningdek, tadqiqotdan turkiy tillarning transkripsiya alifbosini tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilgari surilgan masalaning aniqligi, tadqiq usullari va nazariy ma’lumotlarning ishonchliligi, O‘rxun yozuvlari uchun umumiy bo‘lgan muammolarga yechim topganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qadimgi turkiy yozuvlar haqidagi nazariy bilimlarni bir qadar to‘ldirish, O‘rxun bitiktosh yozuvlarining fonetikasi, transkripsiyasi bo‘yicha yakdil ilmiy xulosalarga ega bo‘lish va O‘rxun yozuvining transkripsiyasidagi farqliliklarni bartaraf etish uchun yangi usul taklif etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek tilshunosligida fonetika, fonologiya, transkripsiya sohalarini tadqiq qilishda, oliy ta’lim muassasalari “Filologiya va tillarni o‘qitish”, “O‘zbek tili va adabiyoti” ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Tilshunoslik nazariyasi”, “Qadimgi turkiy til”, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Dialektologiya” kabi fanlar hamda “Fonetika va fonologiya” predmeti bo‘yicha tashkil etiladigan maxsus kurslar uchun o‘quv adabiyotlarini, bakalavr va magistrlik tadqiqot ishlarini tayyorlashda birlamchi manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda qo‘lga kiritilgan nazariy va amaliy natijalari O‘rxun yozuvining transkripsiyalarini tartibga solish, shuningdek, qadimiy turkiy obidalaridagi matnlarni tadqiq qilish asosida:

O‘rxun yozuvlaridagi unilarning turkologlar tomonidan lotin va kirill

yozuvida amalga oshirilgan transkripsiyalardagi farqlari, obidalar matnlaridagi qalin va ingichka unli tovushlar bilan qo‘llanuvchi undoshlar hozirgi turkiy tillarda bir yoki bir necha belgilar bilan transkripsiya qilinishiga oid ilmiy asoslangan xulosalardan Turkiya Respublikasi Burdur Mehmet Akif Ersoy universiteti “Fan-Adabiyot” fakulteti, “Turk tili va adabiyoti” kafedrasining 2021-2022-o‘quv yilining kuzgi va bahorgi semestrlari bakalavr o‘quv dasturidagi “TDE 17207 Orhun Türkçesi”, “TDE 17105 Türk Dili Tarihi I” kabi fanlaridan dars materiallari tayyorlashda foydalanilgan (Turkiya Respublikasi Burdur Mehmet Akif Ersoy universiteti “Fan-Adabiyot” fakultetining 2022-yil 2-avgustdagi № E-73207616-900-182531-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish O‘rxun yozuvlarini transkripsiya qilish masalalari bo‘yicha talabalar va magistrantlarning to‘laroq ma’lumotlarga ega bo‘lishiga xizmat qilgan.

O‘rxun yozuvlaridagi ligatur birliklar alohida harf yoki tovush birligi shaklida ifodalovchi maxsus bitta belgi bilan transkripsiya qilinishi, O‘rxun yozuvlarida ifoda etilmagan, lekin o‘qish uchun qo‘llaniladigan unli harflarning transkripsiyasi masalasi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy xulosalardan Turkiya Respublikasi Izmir Kotib Chalabiy universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” fakulteti, “Turk tili va adabiyoti” kafedrasining 2021-2022-o‘quv yilining kuzgi va bahorgi semestrlari bakalavr o‘quv dasturidagi “TDE 451 Eski Türk Yazıtları”, “TDE 229 Eski Türkçe” fanlarining shu mavzuga tegishli dars mashg‘ulotlarida foydalanilgan (Turkiya Respublikasi Izmir Kotib Chalabiy universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” fakultetining 16.09.2022-yil 16-sentabrdagi № E-57707502-710.90-2200101445-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zlashtirish murakkab bo‘lgan O‘rxun yozuvlaridagi ligatur va ifoda etilmaydigan birliklarini transkripsiya qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshishiga xizmat qilgan.

O‘rxun yozuvlarida unlilar va undoshlarning turkologlar tomonidan lotin va kirill yozuvida amalga oshirilgan transkripsiyalaridagi farqlariga oid ilmiy xulosalar, o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatish bo‘yicha ishlarda til transkripsiyasi masalasiga doir alohida bo‘lim ajratish va bu bo‘yicha maxsus elektron audio talaffuzlarni yaratish hamda uni elektron platformalarga joylashtirish uchun talaffuz me‘yorlari bilan bog‘liq maxsus “til laboratoriyalari”ni tashkil etish kabi yangiliklar, taklif va tavsiyalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JB CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” xorijiy grand (2022-yil 14-iyul, 2006/30.02.01 son ma’lumotnoma) loyihasida foydalanilgan. Natijada xorijiy tillarni kompyuter texnologiyalari vositasida o‘qitish, ularning transkripsiyalarini moslashtirish, jumladan, ligatur va qo‘sh undoshlarni o‘qish va yozishda hamda yozma nutq konikmasini mufoviqlashtirishda dissertatsiyadagi IPA (Xalqaro Fonetika Assosiatitsiyasi) tomonidan tavsiya etilgan transkripsiya va qo‘shimcha belgilar asosida ishlab chiqilgan transkripsiya va uning variantlaridan foydalanish joriy qilingan.

Turkiy tillar etimologik lug‘atlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirishda O‘rxun matnlarida uchraydigan, kelib chiqishi begona tillarga oid bo‘lgan so‘zlarning qadimiy turkiy tilga kirib kelishi va o‘zlashtirilishi tarixiga oid ishlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishi natijalarining ilmiy, amaliy jihatlarini hamda metodologik g‘oyalari, taklif va tavsiyalaridan Samarqand viloyat

teleradiokompaniyasida 2022-yil, 16-iyul kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand” ko‘rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 27-iyuldagi № 01-12/271-son ma’lumotnoma). Natijada bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham uchraydigan, chet tillardan o‘zlashtirilgan ayrim so‘zlarning kelib chiqishi masalalariga aniqlik kitirilgan, bu esa o‘zbek tili etimologiyasi takomillashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 10 ta ish e’lon qilingan. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlar ro‘yxatida 5 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy hamda 4 ta respublika jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, 150 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosliga ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘rxun bitiktoshlari va ularni transkripsiya qilish masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida Turk xoqonligining vujudga kelishi, yozuv madaniyatining shakllanishi va uning kelib chiqishi masalasidagi ilmiy qarashlar va nazariyalar o‘rganilgan.

“*Ko‘k turklar davlati*” deb nomlangan birinchi paragrafda tarixiy adabiyotlarda Ko‘k turklar davlati, Turk xoqonligi kabi nomlar bilan ataluvchi davlatning VI asrning o‘rtalarida Bumin (552-553) xoqon tomonidan asos solinib, Muqan xoqon (553-572) davrida o‘z qudrat cho‘qqisiga chiqqanligi, keyinchlik ikki qismga bo‘linib ketishi natijasida G‘arbiy qismda Ko‘k turklar davlatchiligini saqlab qolib, Eltarish va Qapag‘an xoqon davrida yana o‘zining ulug‘vorligini tiklaganligi va nihoyat VIII asrning o‘rtalariga kelib tarix sahnasidan ketganligi haqida mulohaza yuritilgan.

Bobning “*O‘rxun bitiktoshlari va ko‘k turk yozuvlari manbasi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida, aynan yuqorida ta’kidlaganimiz, Ko‘k turk davrida qadimgi turkiy yozuv madaniyati shakllanganligi tahlil qilingan. Fanda “Turk runiy”, “O‘rxun-Yenisey”, “Ko‘k turk yodgorliklari”²⁷ nomlari bilan

²⁷ Содиқов Қ. Қўқ турк битиклари: Матн ва унинг тарихий талқини. – Тошкент: “ТошДШИ” нашриёти, 2004. В.3. Shu bilan birga Turkiya turkologlari aksariyat holatda “qadimgi turk yozuvlari” tarzida talqin qilishgan.

mashhur bo‘lgan ushbu yozuvlar saqlanib qolgan 440 dan ortiq yodgorliklar ma’lum. Ammo jahon turkologiyasida qadimgi turk yozma yodgorliklari ular topib o‘rganilgan geografik joylarga nisbatan (m: Mo‘g‘uliston yodgorliklari, Yenisey (Tuva va Hakasiya) yodgorliklari, Tog‘li Oltoy yodgorliklari kabi) kichik guruhlarga turkumlanadi. Ulardan biri, ya’ni eng qadimgisi hisoblanuvchi O‘rxun bitiklariga uzoq yillar uchta yozma yodgorlik: Kul tegin, Bilga xoqon va To‘nyuquq (geografik jihatdan O‘rxun daryosi vodiysidan uzoqda bo‘lsa-da, lekin davriy jihatdan taalluqli bo‘lgani uchun) bitiktoshlari kiritib kelingan. Keyingi tadqiqotlar natijasida Ko‘k turklar davriga mansub O‘ngin va Kuli Cho‘r bitiktoshlari ham O‘rxun yozuvlari turkumiga kiritildi. Tadqiqotda qadimgi turkiy yozuvlarning topilishi va o‘qilishi tarixiga qisqacha e’tibor qaratilgan.

“Ko‘k turk yozuvlari manbasi” haqida ham so‘z yurutilgan bobning ikkinchi faslida shu vaqtga qadar turkologiyada qadimgi turkiy yozuvlarning kelib chiqishi haqida ilgari surilgan o‘ndan ortiq qarash va nazariyalar tavsiflangan. 1993-yilda, bizningcha, rossiyalik turkologlar V.G.Guzsev va S.G.Klyashtorniy tomonidan ilk bora ilgari surilgan²⁸ hamda shu asosda V.G.Guzevning 2000-yilda qilgan ma’ruzasi qadimiy turkiy yozuvning uzil-kesil kelib chiqishi masalasiga yechim sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi. Binobarin, o‘zlarigacha ilgari surilgan barcha nazariyalarni tizimlashtirgan olimlar ishlab chiqqan nazariyasiga ko‘ra ko‘k turk alifbosi qadimiy turklarning o‘z ijod mahsuli (otonkton) ekanligi haqidagi qat’iy fikrga kelganlar. Ko‘k turk alifbosining kelib chiqishi masalasida eng tizimli mulohazalarni o‘zida namoyon etgan ushbu nazariyaga ko‘ra ko‘k turk yozuvi rasm va tamg‘alardan iborat bo‘lgan shaklda “o‘z yozuv madaniyatini yaratganlarda kuzatiladigan yozuvgacha bo‘lgan hamma holatni – so‘z, bo‘g‘in va harf bosqichlarini” bosib o‘tgan va VIII asrning boshlarida harfli yozuv ko‘rinishiga aylana boshlagan²⁹.

Bobning uchinchi fasli “*Tor (lablanmagan) va yumaloq (lablangan) unlilarning transkripsiyasi masalalari*” deb nomlanib, unda transkripsiyaning bugun tilshunoslikda o‘rni va O‘rxun yozuvlaridagi unlilarning transkripsiya qilinishi masalasi tadqiq qilingan.

“*Tor unlilar transkripsiyasi*” haqida so‘z yurutilgan birinchi paragrafda \downarrow – A, \uparrow – I unli harflarining transkripsiya masalasi tahlil qilingan. \downarrow – Ko‘k turk yozuvida qoidaga muvofiq bu harf odatda ilk bo‘g‘inda harf sifatida yozilmaydi, lekin qoidadan chekingan holatlarda yozilgan “e” unli harfini turkologlar an’anaviy holatda ifodalanadigan va yozilmay ketiladigan qisqa “a” harfidan farqli ravishda uzun “ā” harfi sifatida o‘qilishini ko‘rsatishadi.

\uparrow – qalin undoshlar (∂ b¹, ʒ d¹, ʔ g¹, ɳ q, \downarrow l¹, ɹ n¹, ɣ r¹, ʃ s¹, ʈ t¹, ɖ y¹) bilan birga kelganda qalin “i” tovushi tarzida, ingichka undoshlar (ʂ b², ʃ d², ʄ g², ʇ k², ʈ l², ɳ n², ʈ r², ɳ s², ɳ t², ɳ y²) bilan birga kelganda ingichka “i” tovushi tarzida o‘qiladi. Neytral undoshlar (ʃ ch, ʈ m, ɳ ng, ʇ ny, ɳ p, ʃ sh, ɳ z) va juft undoshli tovushlar (ʈ nt, ʇ nch, ɳ lt) bilan birga kelganda ingichka yoki qalin tarzida o‘qilishini undan oldin yoki keyin kelgan undosh harflar belgilab beradi. So‘z

²⁸ Klyashtorniy S.G., Guzev V.G. Genel Yazı Nazariyesi Işığında Göktürk Yazısının Menşei Meselesi (Okunuşunun 100. Yıl Dönümü Dolayısıyla) // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten, № 41, 1995 – S. 27-33. Retrieved From <https://Dergipark.Org.Tr/Tr/Pub/Belleten/Issue/44374/548101>

²⁹ Guzev V.G. Göktürk Yazısının Kendiliğinden Doğma (Otonkton) Menşei Varsayımını Esaslandırın Delilller. // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten. –Ankara, TDK. 2001. – S. 209-220.

boshi va birinchi bo‘g‘indagi keng-tor “ı” va “i” unlilari doimo harf sifatida yoziladi³⁰. Birinchi bo‘g‘indan keyingi bo‘g‘inlarda uchraydigan /ı, i/ ko‘p hollarda yozilmaydi. Birinchi bo‘g‘indagi /ı-i/ unlilarning yozilmagan holatlar kabi istisnolar ham bor³¹.

Yuqoridagi harflarning transkripsiyasi masalalaridagi tafovutlar V.V.Radlov, V.Tomsen, A.Vamberi, P.M.Melioranskiy, H.N.O‘rqun, A. fon Gabain, S.E.Malov, T.Tekin, M.Ergin, G.Aydarov, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.Shukurlu, E.Rejebov-Y.Memmedov, S.Sidiqov-K.Konkobaev, A.S.Amanjolov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, N.Bazilxan, Sh.Geng, A.Berta, S.Karjaubay, N.Xudiyev, A.B.Erjilasun, E.Aydin, M.O‘lmez kabi turkologlarning³² bu boradagi transkripsiyasi qiyosiy tahlildan o‘tkazilib, ularning XFAsidagi talaffuz me‘yorlari bilan qanchalik uyg‘unligi haqida xulosa qilingan.

“Yumaloq unlilar transkripsiyasi masalalari” haqida so‘z yuritilgan ikkinchi paragrafda O‘rxun bitiklaridagi > va ʌ harflarining (o‘zbek tilida harf sifatida O‘ va U ga to‘g‘ri keladi) transkripsiyasi bilan bog‘liq farqliliklarga e‘tibor qaratilgan. Yuqoridagi nomlari ko‘rsatilgan olimlarning qadimiy turkiy yozuvdagi ushbu harflarni o‘qishda taklif etgan transkripsiya belgilari qiyosiy tahlil qilinib, ularda kuzatilgan o‘ziga xos jihatlar bo‘yicha mulohaza yuritilgan. Jumladan, boshqa olimlardan farqli holatda, vengriyalik turkolog A.Berta > harfini qalin tor yumaloq (lablangan) unli tovushni ifodalashi uchun “u”, qalin keng yumaloq (lablangan) unlini ifodalashi uchun “o” ni bergani holda “u-o” oralig‘ida bir tovushni ifodalashi uchun “w” transkripsiyasini hamda ʌ harfini ingichka tor yumaloq unli tovushni ifodalashi uchun “ü”, qalin keng yumaloq unlini ifodalashi uchun “ö” va “ü-ö” oralig‘idagi tovushni ifodalash uchun “w” transkripsiyasini taklif etgan.

“Qalin va ingichka unlilar bilan ishlatilgan undoshlarning transkripsiyasi” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida O‘rxun yozuvlaridagi qalin unlilar bilan ishlatilgan 10 ta belgi va ingichka unlilar bilan ishlatilgan 10 ta undosh harflarning transkripsiyasi masalalariga etibor qaratilgan.

Turkologlar qadimiy turkiy yozuvlarda uchragan undosh harflarni ularni avvalo qalin-tor va qalin-yumaloq, ingichka-tor va ingichka-yumaloq unlilar bilan ishlatilish holatiga ko‘ra guruhga ajratadilar. Unga ko‘ra 10 ta undosh harflar – ɔ, ʒ, ʕ, ɽ, ɟ, ɥ, ʁ, ɖ – qalin-tor va qalin-yumaloq unlilar bilan birga qo‘llaniladi. Yana 10 ta undosh harflar – ʁ, x, ɛ, ʔ, ʕ, ɽ, ʕ, l, h, ɣ – ingichka-tor va ingichka-yumaloq unlilar bilan ishlatiladi. Turkologlar tomonidan ushbu harflarning transkripsiya qilinishi qiyosiy tahlildan o‘tkazildi. Asosan ɔ, ɥ, ʁ va ʁ, ɛ, ʔ, ʕ, ɽ, ʕ, l, h, ɣ mualliflarning qaysi yozuv grafikasida (lotin yoki kirill) transkripsiya qilganidagi farqlilikni inobatga olmaganda, deyarli barcha holatlarda ularning o‘qilishi bo‘yicha tavofutli jihatlar kuzatilmagan.

O‘qilishi bilan bo‘g‘liq transkripsion farqliliklar eng ko‘p “ʕ” harfining transkripsiyasida kuzatiladi. Birgina kirill alifbosidagi ishlarning o‘zida uchta farqli belgini tavsiya etishgan: “ɥ” – V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov; “ʕ” – G.Aydarov, G.Abdurahmonov, E.Rejebov, Q.Sodiqovlar; “ɽ” – S.Sidiqov-K.Konkobaev; lotin alifbodagi ishlarda 5 ta tavofutli transkripsiya taklif etilgan:

³⁰ Tekin T. Orhon Yazıtları. – Ankara: TDK, 2010. – S.10.

³¹ Ercilasun A.B. Türk Kağanlığı ve Türk Bengü Taşları. – İstanbul, 2016. – S.363.

³² Qadimgi turkiy yozuv transkripsiya qilingan barcha adabiyotlar dissertatsiyada keltirib o‘tilgan.

“γ” – V.Tomsen, A. fon Gabain, T.Tekin (1968), A.S.Amanjolov, N.Bazilxan, A.Berta; “g” – A.Vamberi, H.N.O‘rqun, T.Tekin (1968 yildagi asaridan tashqari), A.B.Erjilasun va E.Aydin; “ğ” – M.Ergin; “y” – Sh.Geng va S.Karjaubay; “ğ” – A.Shukurlu va N.Xudiyev. Tadqiqotimiz buning asosiy sababini ushbu olimlar mansub turkshunoslik yo‘nalishlari (maktab) bilan bog‘lash haqida xulosa chiqarish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Neytral va ikki tovush sifatida talqin etiluvchi harflar transkripsiyasi” deb nomlanib, O‘rxun yozuvlaridagi unli-undosh yoki undosh-unli sifatida talqin etiluvchi harflar, neytral hamda juft undoshlar guruhiga mansub harflarning transkripsiyasi masalalariga etibor qaratilgan.

Qadimgi turkiy yozuvda undoshlarni ifodalash uchun ishlatiladigan 31 harfdan 7 tasi – 𐰀 ch, 𐰁 m, 𐰂 ñ (ng, 𐰃 n, 𐰄 p, 𐰅 sh, 𐰆 z ham qalin, ham ingichka tovushlar bilan qo‘llanilganligi uchun neytral undoshlar guruhiga kiritishadi. Turkologlar tomonidan mazkur harflarning transkripsiyasida eng ko‘p tafovutli holat 𐰂 ñ (ng) va 𐰃 n harflarida (asosan lotinchadagi nashrlarda) kuzatilishi aniqlandi. V.Tomsen alifboni yaratgan va ishlatadiganlar bu belgida 𐰇 nd va 𐰈 nç ga parallel ng birikmasini ko‘rgan bo‘lishi mumkin³³. Runa ba‘zan ng sifatida transkripsiya qilinsa ham V.Tomsenning “yagona tovush” qarashi turkologiyada umumiy qabul qilingan.

𐰃 – so‘z boshida uchramaydi, oxirida va o‘rtasida ishlatiladi. So‘z yuritilayotgan burun tovushi endi eski turkchanning uyg‘ur davrida uchramaydi, aniqrog‘i, eski uyg‘urcha matnlarda bu tovushni belgilovchi harf yo‘q. Moniylik matnlari va runik yozuvlarda “n” dialekti, buddaviy qo‘lyozmalarda “y” dialekti ko‘zga tashlanadi. Bu tovush hozirgi turkiy til va shevalarda “ŋ” tovushi kabi keng tarqalgan emas. Hozirgi kunda “ɲ” tovushi do‘lgan, yoqut, to‘fa va sayan tillarida uchraydi³⁴. J.R.Hamilton ba‘zi etimologik sabablarni keltirib, harfni vaziyatga qarab ba‘zida “yn”, ba‘zan “ny” o‘qilishi kerakligini ta‘kidlaydi³⁵. F.Agja uni jami o‘n uch so‘z va bir qo‘shimchada, O.F.Sertkaya bo‘lsa, so‘z o‘rtasida 9 ot va 1 qo‘shimcha, so‘z oxirida esa 6 ot va 8 fe‘lda keltirilganligini ta‘kidlab, yana ularga 2 ta misol qo‘shdi va soni 26 taga yetdi³⁶.

Undosh tovushlarni bildiruvchi harflar matnda ba‘zan bo‘g‘in unlisi bilan talaffuz qilinadi, lekin bu alifbo tizimiga emas, balki unliharflarning ko‘pincha ko‘rsatilmaydigan yozish qoidalariga bog‘liq. Aks holda, har bir undoshning alohida olingan fonetik qiymati tovush hisoblanadi. Shunga ko‘ra, runik alifbo harflari orasida “ovozli undoshlar” mavjud emas. Masalan, 𐰉 belgisi /uq/ yoki /uk/ni bildirmaydi, balki orqa tanglay yumaloq [q] tovushini bildiradi. 𐰊 belgisi /üq/ yoki /ük/ni emas, old tanglayning yumaloq [k] tovushini bildiradi. 𐰋 belgisi ham /ıq/ yoki /qı/ emas, orqa tanglay tekis [q] tovushi shaklida o‘qish kerakligi

³³ Thomsen V. Orhon ve Yenisey Yazıtlarının Çözümü: İlk Bildiri. Çözülmüş Orhon Yazıtları. Çev. Vedat Köken. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1993. – S. 36.

³⁴ Sultanzade V. Türk Runik Alfabesindeki “Çift Ünsüz” İşaretleri Üzerine // Bilig Yaz, Sayı 82, 2017. – S. 201-206.

³⁵ Hamilton J. R. İyi ve Kötü Prens Öyküsü. Çev. Vedat Köken. – Ankara: TDK. 1998. – S. 68-69.

³⁶ Yıldız H. Eski Türk Runik Yazısında 𐰃 ligatürünün kökeni ve Ñ sesi üzerine // III Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Sempozyumu, 2016.

haqida avval ham aytib o‘tilgan³⁷. Xuddi shunday ʸ belgisi /ich/ yoki /chi/ kabi “qo‘sh tovush” emas, balki lablashmagan [ch] tovushni ifodalovchi harfdir³⁸.

Turkologlar O‘rxun yozuvlarida qo‘sh undosh deb ataluvchi 3 ta harfni ajratib ko‘rsatadilar. Bular – M, ʒ va ʘ. M – faqat orqa unli so‘zlardagi “alt” iborasi va so‘z ichida “lt” undosh juftini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.³⁹ Runik alifbodagi /l/ va /d/ va /t/ tovushlariga mos keladigan harflardan tashqari, bu tovushlarning birikmasini ifodalovchi M belgisining mavjudligi va yozma ravishda ishlatilishining asosiy sababi katta ehtimol bilan mehnat va vaqtni tejash uchun bo‘lsa kerak. Turkiy tillarda /d/ (t) bilan boshlanuvchi affikslar va /l/ bilan tugagan ildizlar ko‘p, shuning uchun ularning birikish chastotasi har safar toshga ikkita alohida harf yozishdan ko‘ra amaliy yechim sifatida M belgisidan foydalanishga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Bu ʘ belgisiga ham tegishli. Burunli /d/ tovushini ifodalash uchun ixtiro qilingan bo‘lsa ham bu belgi ko‘pincha M belgisi bilan parallel bo‘lgan ketma-ket tovushlarni qisqacha ifodalash uchun ishlatilgan. M va ʘ harflari odatda o‘zak+qo‘shimcha (affiks) chegarasida ishlatiladi. Ko‘rib chiqilayotgan harflarning qo‘sh undosh ekanligini ko‘rsatish uchun shu faktning o‘zi kifoya, chunki tovush qiymatlarini tashkil etuvchi undoshlar ikki xil birlikning bir qismi bo‘lib, biri o‘zak (l, n), ikkinchisi esa qo‘shimchaga (d/t) tegishlidir⁴⁰.

ʒ – /anch/, /änch/ tovushli iboralar va /nch/ undosh juftlarini yozish uchun ishlatiladi. Yo‘g‘on va ingichka unli so‘zlarda /nch/ undoshlari har doim shu belgi bilan ko‘rsatiladi⁴¹. Bu belginin “ny” va “ng” kabi burun tovushlarining yozma ekvivalenti ekanligi, tish-tanglay burun undoshiga mos kelishi uchun uni qo‘sh undosh deb hisoblamaslik kerakligi haqidagi fikrlar ham mavjud⁴².

XULOSA

Qadimgi turkiy yozuvlarning transkripsiyasi masalasini tadqiq qilish bir qator nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ko‘k turk yozuvlaridagi unli harflar (ʘ, ʒ, ʒ, ʘ) turkologlar tomonidan transkripsiya qilinishi masalasi tadqiq qilinib, quyidagi xulosaga kelindi:

1. “ʘ” harfi transkripsiyasi masalasida qalin unlini ifodalashida deyarli barcha turkologlar yakdil fikrda bo‘lib, “a”dan foydalanishgan. Faqat ushbu harfning ingichka talaffuzida tilshunoslar orasida kichik farqliliklar kuzatiladi (“ä”, “e”, “ə”). XFAda birinchi holat uchun “a”, ingichka talaffuzi uchun “e” tavsiya etilgan.

2. “ʘ” harfini transkripsiyasida asosiy tavofut uning qalin tovushni ifoda etishida kuzatiladi – “ы”, “ı”, “y”, “ı” va “ı”. XFA bo‘lsa yopiq orqa tekis unli uchun “u” tavsiya etilgan. Biz “o” va “u” harfining holatini va “ ” shaklining ingichka tovushlarni ifodalash uchun ishlatilishini ko‘rsatish orqali “ı” shaklida, shu bilan birga ushbu harf transkripsiyasida yopiq “e” tovushini ifodalashi uchun

³⁷ Erdal M. A Grammar of Old Turkic. – Leiden-Boston: Brill, 2004. – P. 39.

³⁸ Sultanzade V. Türk Runik Alfabetesindeki “Çift Ünsüz” İşaretleri Üzerine // Bilig Yaz, Sayı 82, 2017. – S. 201-206.

³⁹ Ushbu juft undosh tadqiq qilinayotgan bitiklarda jami 70 marta uchraydi.

⁴⁰ Sultanzade V. Türk Runik Alfabetesindeki “Çift Ünsüz” İşaretleri Üzerine // Bilig Yaz, Sayı 82, 2017. – S. 206.

⁴¹ Tekin T. Orhun Yazıtları. 2010. – S. 15.

⁴² Sultanzade V. Türk Runik Alfabetesindeki “Çift Ünsüz” İşaretleri Üzerine. // Bilig Yaz, Sayı 82, 2017. – S. 212.

